

3-dars. Qavssiz ifodalarda arifmetik amallarning bajarilish tartibi



1. Ifodalarning qiymatini hisoblang. Har bir davlatga mos **valutani** aniqlang.

Argentina

$17 \cdot 7$



krona

$221 + 27$

Daniya

$31 \cdot 8$



peso

$131 - 12$

Polsha

$24 \cdot 6$



zlotiy

$160 - 16$



2. Valuta kursi deb bir mamlakat valutasining boshqa mamlakat valutasidagi qiymatiga aytiladi. Bugungi dollar kursi (shartli) – **12 055** so'm. Ushbu mahsulotlarning narxini so'mda aniqlang.

soch to'g'nag'ichi	kepka	soch chambaragi	qalamdon
5 \$	10 \$	7 \$	9 \$



3. Ifodalarning qiymatini **amallarning bajarilish tartibiga rioya qilgan holda** hisoblang.

a) $8\,756 + 4\,945 : 5 - 3\,273$

b) $7\,785 : 3 + 4\,205 - 3\,402 : 2$



4. Tenglamalarni yeching.

a) $x - 12\,894 = 308 + 457$

b) $y \cdot 9 = 42\,501 + 40\,506$



5. Fleshka 17 dollar turadi. Uni Toshkentga yetkazib berish narxi 3 dollar. Agar dollar kursi 12 055 so'm bo'lsa, jami necha so'm to'lash kerak?



6. a va b sonlari berilgan. Agar $a = 126$, $b = 9$ bo'lsa, ularning yig'indisi, ayirmasi, ko'paytmasi va bo'linmasini yozing hamda qiymatini hisoblang.



7. Agar uchburchakning bir tomoni 6 metr, ikkinchi tomoni 7 metr, uchinchi tomoni esa birinchi tomonidan 2 marta uzun bo'lsa, shu **uchburchakning perimetrini** toping.



8. Madinaning 8 ta qo'g'irchog'i bor. Agar unga yana 4 ta qo'g'irchoq sovg'a qilishsa, uning qo'g'irchoqlari Visolanikidan 5 ta ko'p bo'ladi. Visolaning nechta qo'g'irchog'i bor?



9. Ifodalarning qiymatini hisoblang. Javoblarga mos harflarni berilgan tartibda joylashtiring va bu yerda qanday **pul birligi** yashiringanini bilib oling. Ular qaysi davlatda qo'llaniladi?

A $280 \cdot 400$

R $146 \cdot 500$

I $300 \cdot 190$

S $169 \cdot 700$

T $475 \cdot 2\,000$

U $225 \cdot 200$

P $837 \cdot 60$

Y $731 \cdot 100$



73 000	45 000	50 220	57 000	73 100	112 000
50 220	112 000	73 100	118 300	112 000	

10. Azizaning kolleksiyasida 235 ta Afrika tangasi, Afrika tangalaridan 2 marta ko'p Amerika tangalari va Amerika tangalaridan 270 ta kam Yevropa tangalari bor. Azizaning kolleksiyasida jami nechta tanga bor?

